


INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE "INNOVATIVE
DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE "



Boston, USA



INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
"INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE "

Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference

Vol-2 Issue-2, 126 pages.

Collection of scientific articles published is the scientific and practical publication, which contains scientific articles of students, graduate students, Candidates and Doctors of Sciences, research workers. The articles contain the study, reflecting the processes and changes in the structure of modern science. The collection of scientific articles is for students, postgraduate students, doctoral candidates, teachers, researchers, practitioners and people interested in the trends of modern science development.

Homepage: <https://academicsresearch.com/index.php/iditys>

01.03.2023

CONTENT	
BADIIY MATNNI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHNING METODOLOGIK MUAMMOSI Suvonov Zavqiddin	5
FUTBOL BO'YICHA BOLALAR O'SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA IQTIDORLI FUTBOLCHILARNI TANLAB OLISH TIZIMI Alimov Mehridin Muxitdin o'g'li	14
O'ZBEKISTON "SUPERLIGA" FUTBOLCHILARINING JISMONIY FAOLLIGI KO'RSATKICHLARI BO'YICHA MAXSUS TAYYORGARLIGI DARAJASINI TAHLIL QILISH Ziyayev Abdurahmon Abdullayevich, Qodirov Zikriyoxon Qobiljon o'g'li	29
KONSTITUTSIYA – BOSH QOMUSIMIZ. SO'Z ERKINLIGINING KAFOLAT KALITI Gulasal Ismoilova G'ayrat qizi, Muradova Madina Baxtiyor qizi, Sharopova E'zoza Turob qizi	38
ОБУЧЕНИЕ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ИНОСТРАННОМУ НА ОСНОВЕ ПЕРВОГО ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА Таирова М.Х., Шоназарова Феруза	36
THE ROLE OF THE LAW IN SOCIETY Xudayberdiyeva Maxliyo Orif qizi	49
SOME OVERVIEW ABOUT THE PREVAIL OF THE LAW IN THE COMMUNITY To'raqulova Gulsanam Burxon qizi	53
EKOLOGIK FIKRLASH Melibayev Orif Yunusovich	57
KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISH ASOSLARI Begenova Dilaram	60
ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDA TASAVVUFIY SHAXSLAR VOSITASIDA KOMILLIK SIFATLARINING YORITILISHI Muhammadiyeva Muhayyo	64
SOME INFORMATION ABOUT THE PREDATORY FELINES OF CENTRAL ASIA IN THE LITERATURE ON THE HISTORY OF THE ANCIENT WORLD. Kenjayev Sardor Nurmurodovich, Urinov Shahjakhon Jamshidovich, Hakimova Dilmura, Po'latova Shohinabonu	70
SHAYX NAJMIDDIN KUBRO VA KUBROVIYLIK Umida Zaripboyeva	82
ПРИМЕНЕНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В ЦЕЛЯХ УЛУЧШЕНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ Хамракулов Тулкин Тохирович, Имомалиева Арофатхон Вахобжон кизи	87

BADIIY MATNNI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHNING METODOLOGIK MUAMMOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7620293>

Suvonov Zavqiddin

Termiz davlat universiteti dotsenti v.b. PhD

Annotatsiya. Maqolada badiiy matnning lingvistik ekspertizasida maxsus metodologik tamoyil va kategoriyalarning tizimlashtirilishi va qo'llanilishi tadqiqotning natijadorligini belgilovchi mezon ekani, badiiy matnning lingvistik ekspertizasida matn lingvistik ekspertizasining umumiy qonuniyatlari, shuningdek, tafakkur va nutq, shakl va mazmun, nutq va mantiq, shaxs va ruhiyat dialektikasida badiiy va zohiriy ma'no, nutqdagi tag ma'noni aniqlashning lingvistik tamoyillariga metodologik asos sifatida tayanilishi isbotlandi.

Kalit so'z. Badiiy matn, lingvistik ekspertiza, maxsus metodologik tamoyil, kategoriyalarning tizimlashtirilishi.

METHODOLOGICAL PROBLEM OF LINGUISTIC EXPERTISE OF ARTISTIC TEXT

Suvanov Zavkiddin

Associate Professor of Termiz State University v.b. PhD

Abstract. In the article, the systematization and application of special methodological principles and categories in the linguistic examination of the artistic text is a criterion that determines the effectiveness of the research, the general laws of the linguistic examination of the text in the linguistic examination of the artistic text, as well as the dialectics of thinking and speech, form and content, speech and

logic, personality and spirit in the artistic dialectic and it is proved to rely on the linguistic principles of determining meaning in speech as a methodological basis.

Keywords. Artistic text, linguistic expertise, special methodological principle, systematization of categories.



МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Суванов Завкиддин

доцент Термезского государственного университета им. кандидата наук

Абстрактный. В статье систематизация и применение специальных методологических принципов и категорий при лингвистической экспертизе художественного текста является критерием, определяющим эффективность исследования, общие закономерности лингвистической экспертизы текста при лингвистической экспертизе художественного текста. текста, а также диалектики мышления и речи, формы и содержания, речи и логики, личности и духа в художественной диалектике и доказывається опора на лингвистические принципы определения смысла в речи как на методологическую основу.

Ключевые слова. Художественный текст, лингвистическая экспертиза, особый методологический принцип, систематизация категорий.

Metodologik asoslarning to'g'ri tanlanishi uzviy qo'llanishi kutilayotgan natijaning aniqligi va ahamiyatini belgilaydi. Badiiy matn lingvistik ekspertizasi vazifalari har qanday nutq mahsulotlarining, ya'ni matn yoki nutq materiallarining vaziyatdan kelib chiqib, kontekstdagi ma'no va uni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan

asosiy xususiyatlari batafsil muhokamaga sabab bo'ladi. Badiiy matnning lingvistik ekspertizasida axborot ob'ektlarining ma'nosi va boshqa parametrlarini birdan cheksiz hajmgacha bo'lgan so'zlarni o'rganish mumkin. Badiiy matn turli vaziyat va holatlarni ko'rib chiqish, o'rganish, talqin etish va malakali yordam ko'rsatishda ahamiyatli.

Badiiy matn lingvistik ekspertizasining tashxisi sifatida quyidagi vazifalarni ko'rsatish mumkin:

til me'yorlariga amal qilish;

badiiy matndagi betakrorlik va individuallik;

badiiy matn ma'nosi: salbiy yoki ijobiylik xususiyati;

o'zbek tili va boshqa tillarning boyish manbalari bilan bahsli so'zning (so'z birikmalarining) etimologik, evolyusion va assotsiativ tizim aloqalaridagi farqlar;

ismning chalg'ituvchanlik xususiyati;

dushmanlik, zo'ravonlik va boshqa qonunbuzarliklarning nomlanishdagi aniq yoki yashirin targ'ibot.

Badiiy matn lingvistik ekspertizasining identifikatsiya vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi:

taqqoslanadigan umumiy xususiyatlarning grafik, semantik, fonetik, stilistik yoki boshqa jihatdan o'xshashligi;

badiiy matn ekspertisasi o'rganadigan turli xil nomlanishlarning identifikatori (biz o'xshash deb atasak ham bo'lar).

Misol uchun Moskva ESIN "ekspertiza va baholash markazi"da matn va badiiy matnni tekshirish: keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish imkoniyati mavjud.

Sud-lingvistik ekspert tadqiqotida esa audio materiallar, fayl va videolar muammoni hal qilish uchun yordam beradi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

fonoskopik tekshirish;

audio va video yozuvlarni tekshirish;

texnik ko'rikdan o'tkazish;

psixologik va lingvistik ekspertizadan o'tkazish;

kompyuter-texnik ekspertizasi kabi.

Badiiy asarining mazmuni – semantik va formal jihatini lingvistik tahlil qilish tegishli qonun me'yorida nazarda tutilgan o'ziga xos g'ayriqonuniy belgilarga kiruvchi og'zaki va yozma konstruksiyalar hamda lisoniy birliklarni aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi.

Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi nima? Bu og'zaki yoki yozma badiiy matni jarayon nuqtai nazaridan tartibga soladigan lingvistik o'rganishdir. Tekshirish natijasi tilshunoslik va badiiy nutqda maxsus bilimlardan foydalanishni talab qiladigan masalalar bo'yicha xulosa beradi. Badiiy matn ekspertizasining predmeti tilshunoslik sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan muammolarni hal qilish orqali muayyan isbot talab qiladigan holatlarni belgilash.

Badiiy matn lingvistik ekspertizasi ob'ektlari:

Bu badiiy matn, tafakkur va nutq, shakl va mazmun, nutq va mantiq, shaxs va ruhiyat dialektikasida badiiy va zohiriy ma'no, nutqdagi tag ma'noni aniqlashning lingvistik tamoyillari til va nutq birliklari, har qanday moddiy muhitda taqdim etilgan matnlar.

Badiiy matn lingvistik ekspertizasining vazifalari:

so'zlar, barqaror frazeologik iboralar ma'nolarini etimologik jihatdan izohlash va tushuntirish;

lisoniy birlik yoki nutq birligining asosiy va qo'shimcha (konnotativ) og'zaki yoki yozma ma'nosini izohlash;

adabiy nutqda mu'yorlarni tushunishning qanday variantlari mavjudligini aniqlash uchun hujjat matni qoidalarini talqin qilish;

badiiy asarda aks etgan ("Qir ustidagi ayol" J.E.) savdo belgilari, shiorlar, reklama matnlari, tijorat, tovar nomlarini identifikatsiyalash yoki boshqa belgilar bilan chalkashlik darajasini analogik o'rganish;

Matnning (fragmentni) semantik yoʻnalishini, qilingan takliflarning modalligini, nutq birliklarining ekspressivligi va emotsionalligini, ularning rasmiy va grammatik xususiyatlari hamda semantikasini, ishlatilgan uslubiy vositalarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun oʻrganish.

Qachon kerak?

Badiiy matn lingvistik ekspertizasiga quyidagi holatlarda zarurat paydo boʻladi:

mantiqan buzilgan matn mohiyatini ochishda;

huquqni muhofaza qilish organlarining yozma matn orqali axloqiy jihatdan sodir etilgan jinoyatlarni oshkor qilishda;

badiiy asar qahramonlarining tuhmat, haqorat, nafrat va adovatni qoʻzgʻatish prosessida, shuningdek, personajning har qanday milliy, diniy yoki boshqa ijtimoiy guruhga mansubligi sababli inson qadr-qimmatini, bundan tashqari, jinsiy, etnik jihatdan kamsitilish holatlarida;

badiiy matndagi savdo belgisi, ataylab soxta reklama, mualliflik huquqining buzilishi va turdosh huquqlar, ixtirochilik va patent huquqlari, adabiyotda pornografik materiallarning noqonuniy targʻiboti va boshqalar;

matnda xalq manfaati, shaʼni, qadr-qimmatini, shuningdek fuqarolarning ishbilarmonlik obroʻsini himoya qilishda;

mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishda;

adabiy asarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yoki ularning muqobillarini targʻib qilish kabi.

Badiiy matnni lingvistik ekspertiza qilish va uni uslubiy jihatdan tekshirish holati, mavjud ekspert metodlari muammosi hamda ularni takomillashtirish xususida yoʻnalish hamda takliflarni koʻrib chiqishga ham zarurat bor.

Badiiy matnning lingvistik ekspertizasida maxsus metodologik tamoyil va kategoriyalarning tizimlashtirilishi va qoʻllanilishi muammosini lingvistik

ekspertizaning eng muhim va hal qilinmagan masalalaridan biri desak ham bo'ladi. Bunda badiiy matn uchun lingvistik ekspertiza o'tkazish amaliyoti, xususan, o'z-o'zidan, individual va sub'ektiv ravishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Soha mutaxassislari (tilshunos, adabiyotshunos, jurnalistlar) bir tomondan badiiy matnning filologik va kundalik holatiga, yana bir jihatdan esa badiiy adabiyot va matbuotdagi huquqshunoslik sohasi bilimlariga tayanadi. Bularni ham e'tibordan qochirmaslik zarur. Ammo shunga qaramay, badiiy matnning lingvistik ekspertizasiga ehtiyoj ortgandan-ortib bormoqda. Shu bilan birga, barcha ishtirokchilar uchun sud jarayonining barcha bosqichlarida yagona "o'yin qoidalariga" talab ortib bormoqda. Bu jarayonlar uchun maxsus metodlar ishlab chiqilmaganligi seziladi. Va, da'vogar va sudlanuvchilarning (muallif va tanqidchi) ekspert baholaridan noroziligini keltirib chiqarish aniq. Shu sabab bu protsesslarning ko'pchiligi bir necha urinishlar bo'lgani bilan kechiktiriladi va keyinga qoldirib kelinadi hamda qaytadan ko'rib chiqilishga majbur bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jamoatchilik huquq targ'ibot sohasidagi ziddiyatli lingvistik vaziyatlarni huquqiy nuqtai nazardan baholashni samarali tarzda birlashtira oladigan hamda umumiy prinsiplarni huquqiy lingvistik ekspertizaning o'ziga xos metodologiyasini ishlab chiqishi zarur¹.




Badiiy matnni tekshirishda metodologiya muammosi haqida gap borar ekan bir narsani esdan chiqarmaslik zarur. U o'qish, tushunish, ma'nosini bilish, badiiy zavq olish uchun yozilgan badiiy san'at asari. Bu ma'lum ma'noda asar muallifida tug'ma iste'dod bo'lishini talab qiladi va, hattoki, yaratilajak qahramonlarning hammuallifi bo'lishi hamda ular bilan bilvosita teng shartlarda muloqotga, dialogga kirishishiga to'g'ri keladi. Bunda metodika – bu mavzuni o'rganish yo'llari va strategiyalari hamda jarayonni o'rgatish. Metodologiya esa – insonning voqelikni,


¹ Каранг: Голев Н.Д. О соотношении лексического и словообразовательного аспектов при описании мотивированных слов в системе и тексте. [Галяшина, 2003, Галяшина, 2006, Баранов, 2007]. Голев Н.Д. Динамический аспект лексической мотивации. – Томск, 1989. lingvo.asu.ru/golev/articles/z80.html.

jarayonni o'zgartirish usullarini aniqlash, o'rganish va tashkil etish. Sistemaviy yaxlitlikni taminlash va rivojlantirishga qaratilgan aqliy faoliyat turi. Metodlarni qo'llash va ulardan foydalanish inson faoliyatining har qanday sohasida amalga oshiriladi. Bu har qanday soha doirasida ko'rilgan va tajribada qo'llangan hodisa. Ammo metodologiya termini tekshirish usullarini izlash, ishlab chiqish va tizimlashtirishda nafaqat vosita, balki asosiy maqsad va natijasi hisoblanadi. Metodologiya oqibatga emas faqat natijaga asoslanadi.

Metodologiya ikki yo'nalishda aks etishi mumkin. Ham nazariy, ham falsafiy bilimlar va amaliy muammolarni hal qilish; dunyoni maqsadli o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Har qanday sharoitda nazariy fikr bilim modeliga intiladi va tayanadi. Amaliy tafakkur esa dastur-choralar, kerakli amaliy maqsadga erishish, haqiqatdan adashmaslik yoki biz ishonchli bilim deb hisoblagan usullar to'plami. Badiiy matnni tekshirish usulining sifati amaliyot bilan bog'liq hodisa. Ilmiy va amaliy muammolarni hal qilish real holatlar to'plamida amalga oshiriladi hamda maqsadga erishish qonuniyatlarini izlash orqali ekspertizadan o'tkaziladi.

Metodologiyada quyidagilar ahamiyatli:

-  - faoliyatning xususiyatlari: tamoyillari, shartlari, me'yorlari
-  - faoliyatning mantiqiy tuzilishi: sub'ekt va ob'ekt
-  - faoliyatning vaqtinchalik tuzilishi: bosqichma-bosqich borishi, jarayoni



- ishni bajarish va muammolarni hal qilish texnologiyasi: vositalar, usullar.

Metodologiya ham substansial ham formal jihatdan o'rganiladi. Metodologiya substansial jihatdan qonuniyatlarni, nazariyalarni, ilmiylikni, ilmiy xarakterdagi mezonlarni va qo'llaniladigan tadqiqot metodlari sistemasini o'rganadi. Formal metodologiya esa tadqiqot usullarini mantiqiy tuzilish va nazariy bilimlarni qurishda rasmiylashtirilgan yondashuvlar, uning haqiqiy hamda asosli ekani nuqtai nazaridan tahlil qilish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Badiiy asar dialogning (bunda badiiy asar va o'quvchi nazarda tutiladi) kommunikativ vositasi hisoblanadi. Adabiy tanqid – bu dialogning ham vositachisi. Tanqid o'z rolini bajarish, badiiy asar konsepsiyasini ochib berishga hamda asarning qiymatini belgilashga hissa qo'shadi. Va, shuning uchun uni talqin qilish, baholash vositasi, tushunish, aniqlash yo'li bilan qurollantirish zarur.

Metodning komik jihati shundaki, u hatto noma'lum hodisani tekshirishga, salaflarga ergashishga, ushbu turdagi yoki o'sha yo'nalish hodisalari bilan Shug'ullangan o'tmishdagi olimlarning tajribasiga asoslanib o'ylashga ham imkon beradi. Bu ilmiy o'zlashtirish (xuddi poetik o'zlashtirish kabi, A.N.Veselovskiy) deyiladi va ijobiy hodisa sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Голев Н.Д. О соотношении лексического и словообразовательного аспектов при описании мотивированных слов в системе и тексте.

2. Голев Н.Д. Динамический аспект лексической мотивации. -- Томск, 1989. lingvo.asu.ru/golev/articles/z80.html.

